

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM AMALGA OSHIRISHDA “SEHRLI SO‘ZLAR” METODIKASIDAN FOYDALANISH

Uralova Nurxon Maxadovna

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda “Sehrlil so'zlar” metodikasi orqali bolalarni milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье освещается содержание воспитания детей на основе национальных, общечеловеческих и духовных ценностей с помощью методики “Волшебные слова” при осуществлении дошкольными образовательными организациями личностно-ориентированного обучения в учебно-воспитательном процессе.

Abstract: This article highlights the content of parenting based on national, universal and spiritual values using the “Magic words” methodology in the implementation of personality-oriented learning in the educational process by preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kognitiv qobiliyati, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik,, “Sehrlil so'zlar” metodikasi.

Ключевые слова: Личностно-ориентированный подход, личностно-ориентированное обучение, когнитивные способности, доброта, коммуникабельность, правдивость, правдивость, целеустремленность, инициативность,, методика “Волшебные слова”.

Key words: Personality-oriented approach, personality-oriented learning, cognitive abilities, kindness, sociability, truthfulness, truthfulness, purposefulness, initiative, "Magic Words" methodology.

MTTda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi – bolalarning individual kognitiv qobiliyati (bilishi, tushunishi va fikrlashi), ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda, yoshiga binoan guruhda har bir bola bilan individual ishlash imkonini beradigan pedagogik sharoitlarni yaratish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlash uchun ularda hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish va uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Fan-texnikaning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va

ulardan o'rgatish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari maktabgacha ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

“Sehri so‘zlar” metodi- bolalarni milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali natijasini ko'rish imkonini beradi.

“Sehri so‘zlar” metodi orqali bolalarni sehri so‘zlarining «Assalomu alaykum», «Rahmat», «Xo‘p bo‘ladi», «Kechiring», «Labbay» so‘zlarining mazmunini anglash bilan ularni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, o‘zining millati va o‘z madaniyatining muhim elementlarini bilishga ertak, hikoya, vaziyat, o‘yin, sahnalashtirish orqali o‘rgatiladi.

“Sehri so‘zlar” metodi amaliy joriy etilganda bolalar sehri so‘zlarni qanchalik sehri borligini bilib oldilar. Bolalar o‘rtoqlari bilan o‘ynayotganda mehribonlik, g‘amxo‘rlik bilan «Rahmat», «xo‘p bo‘ladi», «kechiring», «labbay» kabi so‘zlardan aytganlarida o‘rtoqlari ularga qanchalik mehribonlik, g‘amxo‘r ekanliklarini anglab yetdilar.

O‘zbekona milliy salomlashishning o‘ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra, samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, salom beruvchi va alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitilari bo‘lishiga, har bir farzand, u xoh qiz bola bo‘lsin, xoh o‘g‘il bola o‘zining yaxshi odobi, namunali xulqi, bilan ota-onasiga rahmat keltirishi, buvi-bobojonlarning duolarini olish, hurmat qilish, ularning xizmatida bo‘lishga, ularga g‘amxo‘rlik qilishga bolalarning e‘tibori qaratiladi.

Bolalarni sehri so‘zlarni ishlatmaslik, kattalarga, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilmaslik, ahil, mehribon bo‘lmaslikning oddiy sabab-oqibatlarini bilishga qiziqtiradi.

Kattalar bolalarga badiiy asarni o‘qib berar ekan bolalarning kattalarni hurmat qilish, ularga g‘amxo‘rlik qilish «Labbay», «Assalomu alaykum», «Rahmat», «Xo‘p bo‘ladi» va shu kabi iltifotli so‘zlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali natijasini ko'rish imkonini beradi.

Mavzu: «Sehri so‘zlar»

Maqsad: Bolalarga «sehri so‘zlar» so‘zlarining mazmunini tushuntirish. «Assalomu alaykum», «Rahmat», «Xo‘p bo‘ladi», «Kechiring», «Labbay» kabi so‘z va iboralari sehri so‘zlar ekanligini bolalarga tushuntirish.

Bolalarda kattalarga va tengdoshlariga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lish tuyg‘usini tarbiyalash. Kattalarga assalomu-alaykum degan so‘zni to‘g‘ri va to‘liq aytib salomlashishga o‘rgatish. Bolalarga “Assalomu alaykum” - senga salomatlik tilayman, degan ma‘noni anglatsa “Vaalaykum assalom” — “sizga ham salomatlik tilayman” ekanligini tushuntirish. O‘zbek milliy qadriyat-o‘zbekona milliy salomlashishning o‘ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, “Assalomu alaykum” deb salomlashganda ochiq chehralik va tabassum bilan salom beruvchi, alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitilari bo‘lishi kerakligini tushuntirish. Salom-alikning mohiyatini chuqur tushunib yetishga, qadriga yeta olish, to‘g‘ri salomlashishga o‘rgatish. “Assalomu alaykum” iborasi haqidagi hikoyasidan o‘qib berish.

Kutilayotgan natijalar: Bolalar «Assalomu alaykum» «Rahmat», «xo‘p bo‘ladi», «kechiring», «labbay» kabi so‘z iboralari sehri so‘zlar ekanligini bilib oladilar.

Bolalarda kattalarga va tengdoshlariga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lish kompetensiyalari tarbiyalanadi.

Kerakli jihozlar: Mavzu bo‘yicha mazmunli rasmlar, salom berishning o‘ziga xos qoidalari ifodalangan rasmlar.

Ta'limiy faoliyatning borishi: Tarbiyachi: Bolalar, so‘zlar sehri bo‘lishini eshitganmisiz? Bugun men sizga “Sehri so‘zlar” haqida so‘zlab beraman. Ha, bolalar sehri so‘zlar bo‘ladi. «Assalomu alaykum»- 1-sehri so‘z, bu so‘zning ma‘nosi senga

salomatlik tilayman, degan ma'noni anglatga 2-sehrli so'z «Vaalaykum assalom», bu so'zning ma'nosi- "sizga ham salomatlik tilayman" ekanligini bildiradi. Bu so'zlarni aytganda ya'ni «Assalomu alaykum» deb salomlashganda ochiq chehra va tabassum bilan qo'limizni ko'ksimizga qo'yib oldinga sal egilgan holda tavoze bilan salom berish kerak, alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitarli bo'lishi kerak. Bu so'zlar shunday aytilgandagina sehrli bo'ladi.

So'ngra tarbiyachi bolalarga salom berishning o'ziga xos qoidalarini rasmlar orqali izohlab beradi.

Tarbiyachi: Bolalar, biz ham erta tongdan uyqudan turib, yuz qo'llarimizni sovunlab yuvib, sochiqqa artinib, kelib avval oilamizdagi kattalarga: buvi, buvijonlarga ota-onalarimizga, aka, opalarimizga qo'limizni ko'ksimizga qo'yib salom beramiz (*surat ko'rsatilib, izohlab beriladi*).

Amaliy mashq: "Salom berishni o'rganamiz"

Mashqning maqsadi: bolalarga o'zlaridan kattalarga salom berishda o'zbekona milliy salomlashishning o'ziga xosligi- bu tabassum, ochiq chehra bilan samimiy mehr bilan bir-biriga boqib, qo'lni ko'ksiga qo'yib, sal oldingi engashib, jilmaygan holda salom berishga o'rgatish va bunga odatlantirish.

Mashqning borishi:

Tarbiyachi: hozir xonaga o'rtog'ingiz Sunbulaning onasi Manzura opa kiradilar. Biz ular bilan salomlashamiz. Manzura opa guruhga kirib kelishlari bilan, sizlar, o'ringizdan turib, ko'lingizni ko'ksingizga qo'yib "Assalomu-alaykum" deb salom berasizlar.

Bolalar Manzura opaga salom beradilar.

Tarbiyachi: Bolalar salomlashishning ham qoidalari bor: Xonaga kirgan kishi birinchi bo'lib o'tirganlarga – Tarbiyachi: Bolalar "Assalomu alaykum!" –deb salom beradi. Alik oluvchi "Vaalaykum assalom" deb javob qaytaradi. Katta kishilarga yoshlar birinchi bo'lib hurmat bilan salom beradilar (*surat ko'rsatilib, izohlab beriladi*).

Tarbiyachi: Odobning boshi — Assalomu alaykum. Kimda-kim birinchi bo'lib salom bersa, uning odobli inson ekanligi bilinadi. Salomlashganda xushmuomalalik bilan salomlashing. Odamlar bilan gaplashganda iliqlik bilan, mehribonlik, g'amxo'rlik bilan gaplashing.

Ko'cha-kuyda, qo'ni-qo'shnilarni ko'rganingizda, uchragan notanish kishilarga albatta o'ng qo'lni ko'ksingizga qo'yib, oldinga sal egilgan holda tavoze bilan salomlashing (*surat ko'rsatilib, izohlab beriladi*).

Tarbiyachi: Bolajonlar yana qanday sehrli so'zlarni bilasizlar? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: Siz o'rtoqlaringiz bilan o'ynayotganda mehribonlik, g'amxo'rlik bilan «Rahmat», «xo'p bo'ladi», «kechiring», «labbay» kabi so'zlardan aytsangiz o'rtoqlaringiz sizga qanchalik mehribonlik, g'amxo'r ekanliklarini bilib olasiz.

Bolalar, men sizga ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynab qolib, uyga kech qaytgan Ahmadjon degan bola haqida hikoya o'qib beraman. Diqqat bilan eshiting.

Kechiring, oyijon!

Hikoya

Ahadjon ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynab qolib, uyga kech qaytdi. Onasi tashvishlanib o'tirgan ekan. U onasining holatini ko'rib bo'ldi va:

- Oyijon, meni kechiring, endi bunday qilmayman, – dedi. Onasining chehrasi biroz yozildi va:

-Ahmadjon, sen aqlli bolasan, men senga ishonaman, – dedi.

Qarang, bolalar, hikoyada Ahmadjon oyisiga "Oyijon, meni kechiring, endi bunday qilmayman" deb kechirim so'radi. Oyisining "Ahmadjon, sen aqlli bolasan, men senga ishonaman" degan

gaplarini eshitgan Axmadjon onasining unga qanchalik mehribonlik, g'amxo'r ekanligini bildi. Va «kechiring» so'zining sehrli so'z ekanini tushunib yetdi.

Siz ko'chadan kech kelganingizda oyingizdan kechirim so'raysizmi?

Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolajonlar, bugun biz nimalar haqida gaplashdik?
2. Qanday "Sehrli so'zlar" bor ekan?
3. "Assalomu alaykum"-so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
4. "Vaalaykum assalom" — so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
5. O'zbekona milliy salomlashish qanday ekan? Biz kattalarga salom berganda qanday salomlashish odobiga rioya qilishimiz kerak ekan?
6. Siz sehrli so'zlarni ishlatganmisiz?

Tarbiyachi suhbat davomida va yakunida bolalarni shirin so'zlar bilan rag'batlantiradi.

"SALOM, MEN" ta'limiy o'yini

Maqsad: bolalarni o'zini o'zi hurmat qilishga o'rgatish.

O'yinning borishi: Boshlovchi qo'lida mushukcha yumshoq o'yinchoqni (agar uni qo'lga kiyiladigan bo'lsa, undan ham yaxshi) ushlab turadi. U bolalarga navbat bilan mushukcha bilan salomlashishlarini aytadi. Har bir bola u bilan o'zini tanishtirib, qo'l berib ko'rishadi. Masalan: "Salom mushukcha, men Malikaman".

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi mana shunday metodlar universal hisoblanib, mashg'ulotlarda taqdim qilingan muammoni yechishga imkon yaratadi, o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi, rivojlantirishda (o'z-o'zini birmuncha samarali boshqarish asosida) faol fikrlashni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ — 4312-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi (2-nashr), 2022-yil.
5. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo'llanma. T.:2020.